

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi
TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASINI SAMARALI DEPOZIT
SIYOSATI ORQALI MUSTAHKAMLASH YO'LLARI

Sarimov Shaxbozali Soatali o'g'li

TDIU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Tijorat banklari faoliyatining samaradorligi va uzluksizligi birinchi navbatda banklarning resurslari bilan qanchalik yetarli ta'minlanganligiga bog'liq. Tijorat banklari moliyaviy resurslari ma'lum shartlar asosida jalb qilingan va bankning o'z mablag'laridan tashkil topib, bank daromadini shakllantirish maqsadida aktiv operatsiyalarga yo'naltirilgan moliyaviy manba hisoblanadi. Jalb qilingan mablag'lar aktiv operatsiyalarni, avvalo kredit operatsiyalarini amalga oshirish uchun pul resurslariga bo'lgan ehtiyojni qoplaydi. Ularning roli juda katta bo'lib, bank resurslarining 70 foizidan ortig'ini tashkil qiladi. Yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtinchalik bo'sh mablag'laridan foydalanish orqali, tijorat banklari ular yordamida xalq xo'jaligining va aholining qo'shimcha aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojini qondiradi, pullarni kapitalga aylanishiga yordam beradi. Banklar mablag'larni jalb qilish imkoniyatlari chegaralangan bo'lib, barcha mamlakatlarda bu jarayon Markaziy bank tomonidan tartibga solinib turadi. Jalb qilingan mablag'lar tijorat banklari kredit resurslarining asosiy qismini tashkil qiladi.

Kalit so'zlar: bank depoziti, depozit siyosati, talab qilib olinguncha depozitlar, muddatli depozitlar, jamg'arma depozitlari, depozit sertifikatlari, bank resurslari, bank passivlari, jalb qilingan mablag'lar, joylashtirilgan resurslar, infliyatsiya.

Bozor munosabatlarining muhim bo'g'inlaridan biri bo'lgan bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish zamirida iqtisodiyotni rivojlantirish, xalqaro bank tizimi talablariga mos keluvchi mahalliy banklar faoliyatini tashkil qilish va ular faoliyatini yanada takomillashtirish shu kunning dolzarb vazifalaridan biri

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydag‘i PF-5992-sonli “2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida “yuridik va jismoniy shaxslarning milliy valyutadagi depozitlarini yanada oshirish, shuningdek, banklarning xalqaro kapital bozorlariga chiqishi hisobiga bank tizimiga qo‘shimcha resurslarni jalb qilish” asosiy vazifalardan biri etib belgilandi.

Depozit siyosatini yuritish elementlarining asosi bo‘lgan bank siyosati resurslarni jalb qilishga asoslangan tarzda, bankning aktiv va passivlarini ko‘p qirrali narxlanishni ratsional taqsimlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Mazkur maqsadlarga erishish uchun quyidagi yechimlarni ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin:

- bankning depozit operatsiyalarini amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishi daromad olish shart-sharoitlarini yaratish;
- bankning likvidlilik darajasini me`yorda saqlash;
- depozit turlarini va turli xil shakllarini singdirish, va ular orasida diversifikatsiya instrumentlarini qo‘llash;
- depozit operatsiyalar orasida mutanosiblikni olib borish, ya’ni ajratilayotgan ssuda ko‘rinishidagi kreditlar, depozitlar va kredit qo‘yilmalari orasidagi davriy uzilishni boshqarish;
- bankning depozit hisob raqamlarida bo‘sh pul mablag‘larini kamaytirish;
- to‘g‘ri belgilangan foiz siyosatini olib borish;
- doimiy ravishda jalb qilingan resurslar bo‘yicha shakllanayotgan foizli harajatlar miqdorini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- mijozlarga xizmat ko‘rsatishda bank xizmatlarini rivojlantirish evaziga bank xodimlari orasida sifat va madaniyatni rivojlantirish.

Bankning turli xil depozit shakllarini tahlil qilishda bir maromda rivojlanib borayotgan depozit turi talab qilib olinguncha sharti asosida bo‘lib, u foiz stavkasining meyoriga bog‘liq bo‘lmasligi sababli, faqatgina xizmat ko‘rsatish sifati va tezligiga bog‘liq bo‘ladi.

Ko‘pgina banklarning amaliyotlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

bankning depozit bazasini shakllantirish jarayoni qiyin va katta mehnat salohiyatini talab qiladi. Chunki, mazkur depozit siyosatini shakillantirish davrida o‘ziga xos bo‘lgan turli xil subyektiv to‘siqlarga bank xodimlari duch keladi.

Bank tomonidan depozitlar bo‘yicha to‘lanadigan foizlar bankning asosiy operatsion harajatlari hisoblanadi. Shuning uchun ham bank bir tomondan jalg qilingan depozitlar bo‘yicha belgilangan foiz stavkasi yuqori darajada bo‘lganligini qo‘llab quvvatlamasada, boshqa bir tomondan mijozlarni jalg qilish uchun shu tarzda yo‘l tutishiga to‘g‘ri keladi. Odatda tijorat banklari katta miqdordagi mablag‘larni uzoq muddatga jalg qilish uchun yuqori darajadagi foiz stavkalarni belgilashlariga to‘g‘ri keladi.

Ko‘pgina davlatlarning Markaziy banklari tomonidan tijorat banklarining likvidlik darajasini yoki resurslar yetarlilik me`yorini majburiy normativ orqali boshqarib boradi. Mazkur normativ aholi pul qo‘yilmalarining umumiy miqdori nisbatini o‘z mablag‘lari (kapitali) foiz nisbatida olinib, uning maksimal belgilanganlik darajasi 100% dan ko‘p bo‘lmasligi kerak.

Tijorat bankining foiz siyosatini olib borishda barcha resurslarning qiymati va depozit operatsiyalarining tahlili olib borilishi shart. Buning uchun quyidagilarni belgilab olish lozim.

- omonatlar bo‘yicha foizlarni belgilash;
- jalg qilingan resurslar bo‘yicha foiz stavkasining dinamikasini o‘rganib borish;
- inflyatsiya sharoitida resurslarning real qiymati hisobini olib borish.

Bank amaliyotida depozit siyosati instrumentlarini foydalaniladigan yo‘nalish boshqarmalari mavjud:

- Kredit boshqarmasi;
- Amaliyot boshqarmasi va albatta g‘aznachilik boshqarmasi qatnashadi.

Jahon amaliyotida banklarning faqat ratsional tarzda resurslarni taqsimlab olayotgan moliya muassasagini o‘zining likvidlilik darajasini saqlab qolishi mumkin. Moliyaviy inqiroz davrida banklar aholidan bo‘shtan mablag‘larini

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

yuqori foiz stavkalar evaziga jalg qilgan holda keng tarzda kredit siyosatining depozit siyosatini olib boradi, ammo ko‘pgina banklarning mijozlarga ajratilgan kredit mablag‘larining o‘z vaqtida qaytmasligi sababli kapitallashuv darajasini kamayishiga, aks holda bankrotlik darajasiga olib kelishi mumkin bo‘ladi. Mazkur holatlarni oldini olish uchun mamlakatimiz miqyosida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan davlat banklarining kapitallashuv darajasini oshirishga harakat qilib kelinmoqda. Binobarin, ayni shu usullarni qo‘llashda davlat banklarining depozit siyosatlarini qayta qo‘rib chiqish zaruriyati dolzarb masala sifatida namoyon bo‘ladi.

Tijorat banklarining jalg qilingan mablag‘lari tarkibida talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar, Markaziy bankdan olingen kreditlar va bankka jalg qilinadigan mablag‘lar qiymati jihatidan arzon, lekin muddati jihatidan nobarqaror moliyaviy resurslar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida 2023 yil davomida tijorat banklari jami majburiyatları 229 501 mln. so‘mga yoki 2022 yil dekabr holatiga nisbatan 1,05 barobarga o‘sib, 2024 yilning 1 yanvar holatiga 241 687 mlrd. so‘mni tashkil etdi¹. Bu o‘z novbatida bankdagi qo‘yilmalarning ya`ni depozitlarning o`sayotganidan dalolat beradi.

Depozit operatsiyalarining obekti bo‘lib ehtiyojdan ortiqcha pul mablag‘lari (qo‘yilmalar) hisoblanadi. Depozit operatsiyalarini tashkil qilishning asosi bo‘lib, balans likvidliligi, mijozlarning moliyaviy ahvolining barqarorligi hisoblanadi. Depozit operatsiyalari tijorat banklarining depozit siyosatini amalga oshirish orqali ta’minlanadi, xususan:

- depozit operatsiyalari bank daromadining oshishga yoki kelajakda daromad olishga sharoit yaratishi kerak;
- bank balansining likvidlilagini saqlash maqsadida depozit siyosatini amalga oshirish kerak;
- depozit operatsiyalarini amalga oshirishda muddatli qo‘yilmalarga e’tibor qaratish lozim;

¹ Cbu.uz ma’lumotlari
www.tadqiqotlar.uz

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

- depozitlarni jalb qilish va ularni vaqtida qaytarib berish bilan bog‘liq bank xizmatlarini rivojlantirish choralarini ko‘rish zarur va boshqalar.

Quyidagi jadvalda O‘zbekiston Respublikasida so`nggi 5 yildagi tijorat banklarining depozit qoldiqlari ma’lumotlari keltirilgan.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklaridagi depozit qoldiqlari, mlrd.so‘m²

Depozitlar	01.2020	01.2021	01.2022	01.2023	01.2024
Milliy valyutadagi depozitlar	51 040	63 318	95 578	131 794	169 515
Xorijiy valyutadagi depozitlar	39 969	49 428	60 611	84 942	72 170
Jami	91 009	114 746	156 189	216 737	241 686

Ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, xorijiy valyutadagi depozitlar dinamikasida ham milliy valyutadagi depozitlarda ham o’sish kuzatilmoqda. Milliy valyutadagi depozitlar dinamikasidagi o’sish xorijiy valyutadagiga nisbatan sezilarli darajada o’sgan bo`lib, so`nggi 5 yil mobaynida milliy valyutadagi qo`yilmalar 3,3 barobarga va xorijiy valyutalar 1,8 barobarga o’sgan. Jami depozitlarining miqdori 2,6 marta oshgani so`nggi yillarda aholining bankka bo`lgan ishonchining oshganidan dalolat beradi.

Banklar orasidagi resurslarni jalb qilish uchun raqobatli kurashda muhim vosita bo‘lib turlicha foiz siyosati hisoblanadi, chunki qo‘yilgan mablag‘larga daromad olish mijozlarning qo‘yilma qo‘yishga undovchi muhim omil hisoblanadi. Depozit foiz stavkalari darajasini har bir tijorat banki O‘zbekiston Respublikasi markaziy banki hisob stavkasi, pul bozori holati va o‘zining

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

depozit siyosatidan kelib chiqib, mustaqil ravishda belgilaydi.

Depozitlarining alohida ko‘rinishlari bo‘yicha daromad hajmi qo‘yilma muddati, summasi, hisobvarag‘ini amal qilish xususiyati, xizmatlar hajmi va xarakteri, va nihoyat mijozning qo‘yilma shartnomasi shartlariga amal qilishiga bog‘liq. Muddatli qo‘yilmalar bo‘yicha foiz stavkasi hajmini o‘rnatishdagi muhim omil bo‘lib, mablag‘lar joylashtirilgan muddat hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi amaliy takliflarni keltirib o‘tish mumkin:

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining foiz marjasini muddatli depozitlarga to‘lanadigan foiz stavkalari darajasini oshirish yo‘li bilan qisqartirish lozim.

Buning natijasida, tijorat banklari depozitlarining umumiy hajmida muddatli depozitlarning salmog‘i hamda muddatli depozitlarning miqdori sezilarli darajada oshadi. Buning sababi shundaki, aholi va korxonalar uchun muddatli depozit hisobraqamlarining jozibadorligini oshiruvchi asosiy omillardan biri muddatli depozitlarga to‘lanadigan foiz stavkalarining darjasini hisoblanadi. Lekin fikrimizcha, foiz marjasini ana shu yo‘l bilan qisqartirish Markaziy bankning muddatli depozitlarga nisbatan belgilagan majburiy zaxira stavkasi keskin pasaytirilishi, natijada talab qilib olinadigan depozitlarga nisbatan belgilangan majburiy zaxira stavkasi bilan muddatli depozitlarning majburiy zaxira stavkasi o‘rtasida sezilarli farq bo‘lishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining jamg‘arma depozitlari miqdorini oshirish yo‘li bilan ularning resurs bazasini mustahkamlash maqsadida:

- birinchidan, yuridik shaxslarning jamg‘arma depozitlariga to‘lanadigan foiz stavkalarining ijobiy darajasini ta’minlash lozim;

- ikkinchidan, aholining jamg‘arma depozitlarini tijorat banklari tomonidan naqd pulda to‘liq va o‘z vaqtida berilishini ta’minlash lozim.

Yuqoridagi ko‘rsatib o‘tilgan taklifda, iqtisodiy nobarqarorlik, inflyatsiya, yuqori miqdordagi resurslar tanqisligi bank tizimidagi depozit siyosatini va u bilan bog‘liq boshqa munosabatlarni qayta ko`rib chiqish imkonini beradi. Shuning bilan

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

bir qatorda, mamlakat bank tizimida tijorat banklarining iqtisodiy mustahkamligi hal qiluvchi muhim elementlardan biri bo`lib hisoblanadi. Shuni ham aytib o`tish lozimki, bank olib borayotgan depozit siyosatida bank passivlari bo`lmish majburiyatlari bank amaliyotida birlamchi o`rinni tutadi. Albatta, barcha bank instrumentlarining afzalliklari va o`ziga xos kamchiliklari mavjud bo`ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydag'i PF-5992-sod Farmoni bilan tasdiqlangan «2020-2025 yillarga mo`ljallangan O`zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish Strategiyasi». Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sod «2022-2026 yillarga mo`ljallangan Yangi O`zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to`g`risida»gi Farmoni.
3. Dirk F. Gerritsen, Jacob A. Bikker and Mike Brandsen (2017). Bank switching and depozit rates: Evidence for crisis and non-crisis years. Utrecht University School of Economics Tjalling C. Koopmans Research Institute Discussion Paper Series 17-18. pp 16.
4. Mertens K. Deposit Rate Ceilings and Monetary Transmission in the U.S. Journal of Monetary Economics. 2008. Vol. 55, no. 7. P. 1290–1302.
5. Uralovich, K. S., Toshmamatovich, T. U., Kubayevich, K. F., Sapaev, I. B., Saylaubaevna, S. S., Beknazarova, Z. F., & Khurramov, A. (2023). A primary factor in sustainable.
6. Дж. Синки. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. пер. с англ. – М.: Альпина Бизнес Букс, 2007. – 1018 стр.
7. Фарходжон Кубаевич Холмаматов. (2024). БАНК ТИЗИМИ МОЛИЯВИЙ БАРҚАРОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ЛИКВИДЛИЛИК КЎРСАТКИЧЛАРИНИНГ ХАЛҚАРО МЕЪЁРЛАР АСОСИДА БАҲОЛАШ ВА УНИНГ ТАҲЛИЛИ. *Journal of New Century Innovations*, 50(3), 56–64. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/12642>

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

8. <http://www.cbu.uz> - Ўзбекистон Республикаси Марказий Банки расмий веб-сайти.